

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA MILLIY

### QADRIYATLARNI SINGDIRISH

**Zakirova Iroda Qurbonbayevna**

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar 4 -sonli DMTT direktori

#### **Annotatsiya**

Maqlada maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, turli xil didaktik materiallar asosida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganildi va tahlil qilindi. Bolani vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rnini yoritib beruvchi taklif va tavsiyalar keltirib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** milliy qadriyat, qo'shiq, ertak, maqol, milliy didaktik materiallar.

### INSTRUCTION OF NATIONAL VALUES TO CHILDREN IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

#### **Abstract**

In the article, education of children of preschool educational organization in the spirit of national values was studied and analyzed scientifically and theoretically based on various didactic materials. Proposals and recommendations were made that shed light on the place of national values in raising a child in the spirit of loyalty to the motherland.

**Key words:** national value, song, fairy tale, proverb, national didactic materials.

Insonning butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o'z qadrini kamolga yetkazish, o'zgalar, jamiyat, zamon va undan sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. O'z shaxsi va boshqalar qadrini anglab yetish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma'naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to'g'ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo'lmog'i lozim. Ushbu ma'noda, Suqrotning "O'z- o'zingni angla!" shiori g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga milliy qadriyatlarni ta'lif – tarbiya orqali ular ongigiga singdirib borish, eng muhim ustuvor vazifalardan biridir. Kelajagimizni barpo etuvchi yoshlarni o'zligini anglagan holda, milliy qadriyatlarni asosida millatimizni va o'zligimizni dunyoga taratuvchi buyuk shaxslarni shakllantrish bizning eng oliy maqsadimizdir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lif tizimining takomillashtirishning 2030 yilgacha tayyorlangan konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shular orasida

maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan didaktik materiallar kamchiligi sezilmoqda. Mazkur materiallarning ko'pchiligi sovet davrida tayyorlangan materiallarning zamonaviylashgani yoki rus xalq ertaklari, maqollari va shularga moslashtirilgan rasmlar shulardan kelib chiqqan holda qadriyatlar maktabgacha ta'lif tashkilotlarini tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan didaktik materiallar benihoyatda dolzarbdir.

Istiqlol yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondoshish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarning ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi, jamiyat a'zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo'nalishidir. Qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy omillaridan biri sifatida qadirlanish borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'ulyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda.

Istiqlol asrlar davomida shakllangan o'ziga xos sharqonada o'zbekona qadrlash masalalari va me'yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Zero, mustaqil bo'limgan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon to'kis bo'lmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma'naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo'lishi aniq. Faqat musaqillikgina ushbu holatni tubdan o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng xuquqli va haqiyqiy qismiga aylantiradi. Shu sababdan ham istiqlol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketadi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta'lif – tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda.

Xalqimizning "Qadriyatsiz-qadriyat yo'q!", "Qadrlanmaydigan qadriyat sarobga o'xshaydi" degan hikmatlari bor. Ana shu sabadan ham mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrning yuksak ifodalari bo'lgan istiqlol, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, demokratiya, qonunning ustuvorligi kabi serqirra qadriyatlarni nihoyatda qadrlashimiz lozim.

Qadim zamonlardan boshlab ota-bobolarimiz, momolarimiz tomonidan ijod qilingan axloq odob, ota-onaga bo'lgan hurmat, ustozga hurmat, vatanga sadoqat, halqqa sadoqat tushunchalarni aks etuvchi dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar, masallar aforistik iboralar, qayroqi so'zlar, afsona, rivoyat, latifalar, bir so'z bilan aytganda, og'zaki ijod namunalari shular jumlasidandir. O'z navbatida bunga bolalar fol'klorlarga oid asarlar, shuningdek sahifalari boy va rango – rang oilaviy tarbiyaga oid namunalar ham kiradiki, ular g'oyaviy mazmun va badiy xususiyatlari bilan bag'oyat go'zal donishmandnomalardir. Xalq yaratgan folklor namunalarini dunyodagi hech qanday boylik, mol – dunyoga qiyos qilib bo'lmaydi. Ularning har birini bebahoz hazina deyish mumkin.

Maktabgacha talim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda turli xil didaktik materiallar asosida tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada quydagи tavsiyalar keltirib o‘tamiz:

Birinchi didaktik materialda “Ota–aql, ona-idrok” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu didaktik material olti yoshli bolalar guruhiga mo‘ljallangan. Mashg‘ulot guruh xonasida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot 20 daqiqa davom etadi. Mashg‘ulot matndi o‘qish, bayon, o‘zaro muloqat, teatr ko‘rinishi, aytishuv kabi shakllarda olib boriladi. Mashg‘ulot video va audio vositalarida amalga oshiriladi. Mashg‘ulot jarayonida tarbiyalanuvchilar qarsaklar, o‘yinchoqlar bilan taqdirlanib boriladi.

Odatda tarbiyachi ushbu maqolning kundalik mazmuni va mohiyatini ko‘p marta ishlatiladigan otani padari buzrukvor, onani esa mehribon volida deb ataymiz. Chunki, har bir inson uchun otadan ulug‘ va qadrdon, onadan mehribon va yaqin kishi yo‘q. Haqiqatdan ham, ota-onas buyuk zotlardir. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko‘z qorachig‘idek asrab – avaylab, voyaga yetkazibgina qolmasdan, hamma vaqt quyosh yanglig‘ hayotimizga nur sochib turadilar, bamisol oy kabi tunimizni yorug‘ yo‘limizni oydin qiladilar. Shu boisdan ham, eng go‘zal dostonlar, eng yaxshi qo‘sishlar, eng yoqimli kuylarning ana shu ulug‘ zotlarga bag‘ishlangani beziz emas. Yuqorida aytilgan tushunchalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolajonlarga qo‘sishq, ertaklar, maqollar, hikmatli so‘zlar orqali singdirib boriladi.

Xalq udumlarida, undan kelib chiqadigan odobnomada har qanday bolani yoshligidanoq el – yurt manfaati yo‘lida kurashuvchi, o‘zini emas, balki kishilar baxt – saodatini o‘ylovchi avlodlarning ushalmay qolgan orzu-armonlarini amalga oshiruvchi kishilar bo‘lib kamolga yetishishi lozimligi alohida ta’kidlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolajonlarga, ota-onaga bo‘lgan muhabbat, hurmat tushunchasini singdirishda ularga she’r va g‘azallarni o‘rgatib, ular ongi rivojlantirib boriladi. Ikkinchi didaktik materialda “Ona yurting – oltin beshiging” mavzusida tarbiyachi dastlab “Ona yurting – oltin beshiging” xalq ona yurtni ana shunday deb ulug‘laydi deb uning turli holda oilada, ko‘chada, bog‘chada ishlatishni tushintirib beradi. Vatanning har bir qarich yerini muqaddas bilib, uni sevishga, ardoqlashga davat etadi. Darhaqiqat ona yurt – oltin beshik. Biz anashu oltin beshiklarda dunyoga kelamiz, birinchi bor ilk qadam tashlaymiz, o‘sib ulg‘ayib voyaga yetamiz, el – yurt xizmatiga bel bog‘laymiz. Ona diyorning qadriga yetish, uning kamoloti, gullab yashnashi, osoyishtaligi uchun qayg‘urishni bolajonlarning yoshligidanoq boshlash kerak. Har qanday inson ona vatanni ota-bobolari o‘tgan muqaddas zamin bilan faxirlanib yashash tushunchalarini doimo ta’lim tarbiya orqali singdirib borish har bir ustozning muqaddas burchidir.

Ta’lim tarbiya jarayonida har bir bolaga vatanni sevish – bu ona yurting ravnaqi yo‘lida halol mehnat qilish, o‘zini qaxramonliklarga tayyorlab borish kabi his tuyg‘ularni shakllantirib borish lozim. O‘zini yashab turgan zaminini e’zozlash, tabiatni va nafosatini saqlash, uning

go‘zaligiga go‘zallik qo‘shish, odamlarni seva bilish, a’lo o‘qish, hush xulq, hush surat qilib tarbiyalamoq kerak.

Xulosa qilib aytulganda kelajak avlodni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar asosida ota-onaga bo‘lgan hurmat, ustozga hurmat, xalqqa sodiqlik, vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalog‘imiz lozim.

Bu borada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir mashg‘ulotlarda, xalq og‘zaki ijodiyotidan maqollar, ertaklar, she’rlar orqali, ma’naviy– ma’rifiy tadbirlar tashkillashtirib bolajonlar ongiga ushbu qadryatlarni singdirib borilishi maqasadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini ma’naviy bakamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadirlash tuyg‘usi, qadryatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni namoyon bo‘lish shakillari to‘g‘risidagi bilimlarning majmuasi bo‘lgan zamonaviy qadriyatshunoslikning asoslarini o‘rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuninsoniyatning qadirlash me’yorlari borasida to‘plangan yutuqlarini umumlashtirilgan bilim sohalari imkoniyatdan foydalanish ta’lim –tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

## Foydalanimanligi adabiyotlar

1. M.X.Taxtaxodjaeva “Pedagogika” Toshkent 2010 yil
2. Sh.Sodiqova “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” Toshkent 2014 yil
3. Malik Murod . “Oltin sandiq ochildi” – Toshkent “O‘qituvchi ”-1994yil
4. Q.Nazarov . “Qadriyatlar falsafasi ” Toshkent 1998 yil
5. O.Ovlyaeem “Ta’lim metodlari” Toshkent 2017 yil
6. N.Muslimov “Innavatsion ta’lim texnologiyalari” Toshkent 2013 yil.